

SHARTNOMA № 43266

Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish yuzasidan

2022-yil 15 -sentabr

Farg'ona shahri

Ushbu shartnoma bir tomondan **Farg'ona shahar Xalq ta'limi bo'limi** nomidan bo'lim mudiri **G.A.Xalilova** vakilligida kelgusida "Buyurtmachi" va ikkinchi tomondan "**Poytaxt binokor ta'mir**" MCHJ nomidan rahbar **S.Qalandarov** vakilligida kelgusida "Pudratchi" o'rtasida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti.

1.1. "Pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga asosan Farg'ona shahar Xalq ta'limi tasarrufidagi 4-umumiy o'rta ta'lim maktab binosini joriy ta'mirlashni loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

2. Shartnoma bahosi.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha smeta hamda ekspertiza hujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar, QQSni hisobga olgan holda jami **95 000 000,00** (to'qson bech million) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda "Buyurtmachi" va "Pudratchi"ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

3. Hisob-kitob qilish tartibi.

3.1. "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlar qiymati uchun "Buyurtmachi" pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. "Buyurtmachi" oldindan shartnoma umumiy summasini 30 foiz miqdorida **28 500 000.00** (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'm avans to'lovini "Pudratchi" hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar haqiqatda bajarilgan ishlar hajmiga qarab, avans mablag'larini chegirgan holda amalga oshiriladi.

4. Ishlarni bajarish tartibi va muddatlari.

4.1. "Buyurtmachi" tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 30 kun muddat ichida "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari yakunlanishi shart.

4.2. "Pudratchi" bajariladigan ishlarni loyiha-smeta hujjatlari hamda amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. "Pudratchi" ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

5.1. "Pudratchi" mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga asosan to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi. Loyiha-smeta hujjatlariga mos kelmagan ishlar "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilinmaydi va shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi.

5.2. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi, hamda "Pudratchi"dan loyiha-smeta hujjatlariga mos ravishda qurilish ishlarini olib borishni talab qilishga haqli.

5.3. "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi"ga ta'mirlash ishlarini bajarishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratib beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan dalolatnoma (qurilish ishlarini belgilagan talablarga mosligini tekshirish dalolatnomasi) asosida bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, "Buyurtmachi" tomonidan alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 3 kun muddat ichida "Pudratchi"ga xabar yuboriladi. "Pudratchi" tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi. Bartaraf etilmagan taqdirda "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi hamda qonunchilik hujjatlarida nazarada tutilgan choralar amalga oshiriladi.

6. Tomonlarning javobgarligi.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar "Pudratchi" tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatda boshlanmasa va yakunlanmasa, "Pudratchi" bajarilmagan ishlar qiymatining 0.5 foiz miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun "Buyurtmachi"ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishning qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penya "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma sharti bo'yicha qurilish ishlari yakunlanishi belgilangan kundan boshlab kechiktirilgan kun oralig'idagi muddat hisobga olingan holda bir tomonlama amalga oshiriladi.

6.3. "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin "Buyurtmachi" tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0,4 foiz miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun "Pudratchi"ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasining 50 foizidan oshmasligi kerak.

6.4. Penyalar to'lanishi taraflarni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

7. Fors-major holatlari.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi, tabiat hodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar, hukumat qarorlari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

8. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar.

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida tassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5. Taraning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.



9. Qo'shimcha shartlar.

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo, taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa "Buyurtmachi" joylashgan hududdagi iqtisodiy sud va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararlarni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma ikki tomonlama imzolaniib, hududiy g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

10. Tomonlarning manzillari va boshqa rekvizitlari.

«IJROCHI»	«BUYURTMACHI»
<p>"Poytaxt binokor ta'mir" MCHJ Manzil: Farg'ona sh. Qo'chtepa t.J/Sulton, 283 uy Tel: 998 91 671 34 34 X/r.: 2020 8000 3054 3638 1001 Bank nomi: Universal bank Fargona filiali MFO: 01131 Tashkilotning STIR: 308 842 133 IFUT(okonx): _____</p> <p style="text-align: center;"></p> <p>Raxbar: _____ S.Qalandarov _____</p>	<p>Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limi Manzil: Farg'ona sh. Sanoat, 17 uy Tel./faks: +(8 373) 244-33-53 Shg'h 1000228603400179096300075050 Tashkilotning STIR: 200150971, IFUT(okonx): 97600 Farg'ona shahri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi YaG'H: 23 402 000 300 100 001 010 Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKKM) MFO: 00014 G'aznachilik bo'linmasining STIR: 201122919</p> <p>Mudir  Xalilova</p>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ CZ3177702765

1. Loyihaning turi: shartnoma №43266

2. Loyihaning nomi: Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish haqida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Farg'ona shahar Xalq bo'limi tomonidan 2022-yil 12-sentabr kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 12-sentabr kuni "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga yuborilgan.

4. Loyiha bo'yicha taklif: Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

X U L O S A:


Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult



Z.Mirsoliyev

“Tasdiqlayman”
Farg‘ona shahar xalq ta’limi
bo‘limi mudiri _____ G.Xalilova
“ ” _____ 2022-yil



Farg‘ona shahri

15.09.2022 yil

Farg‘ona shahar tasarrufidagi 4-maktab binosini joriy ta‘mirlash ishlari uchun 145172 lot raqamli e‘lonning 09.09.2022-yil kungi elektron bayonnomasi muxokama natijalari to‘g‘risidagi xarid komissiyasining tegishli majlisi

BAYONNOMA XULOSASI

1. Farg‘ona shahar tasarrufidagi 4 -maktab binosini joriy ta‘mirlash ishlari uchun mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag‘lar hisobi va xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo‘yicha mos keladi.
2. Farg‘ona shahar tasarrufidagi 4 -maktab binosini joriy ta‘mirlash ishlari yuzasidan 09.09.2022-yil kuni tuzilgan xarid komissiyasining elektron bayonnomasi yo‘llangan tijorat takliflarni baxolash asosida tuzilgan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi (O‘RQ-684-son) Qonunning 7-bob 62-moddasining 3-va 7-bandariga asosan etender.uzex.uz maxsus axborot portalidagi 09.09.2022-yil kuni tuzilgan xarid komissiyasi elektron bayonnomasining ikki kunlik muxokama vaqtida xech qanday e‘tirozlar kelib tushmaganligi sababli elektron bayonnomada g‘olib deb topilgan "Poytaxt binokor ta‘mir " MCHJ bilan belgilangan tartibda 95 000 000,00 (to‘qson bech million)so‘mlik shartnoma tuzilsin.

Komissiya a‘zolari:

1. SH.Isaqov _____

A.Umarov _____

Z.Kasimova _____

U.Tursunaliyev _____

Komissiya kotibi A.Aliyeva _____